



Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida ijtimoiy-siyosiy masalalar

Sattorova Munisa Majiddin qizi.

Qoraqalpog‘iston davlat universitetining
O'zbek filologiyasi fakultet Magistratura
bôlimi Adabiyotshunoslik: o'zbek
adabiyoti mutaxassisligi, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi, uning ijtimoiy-siyosiy masalasi haqida kengroq ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston xalq yozuvchisi, aholi orasidagi tengsizlik, ijtimoiy siyosiy omillar kinizm, baxshi, chilyosin

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor daslabki ijodini she’riyat bilan boshlagan bo‘lsa-da, uning adabiy merosining negizini nasriy asarlar tashkil etadi. “Bemor” hikoyasi eng taniqli hikoyalaridan biridir. Ushbu hikoya, asosan, insonning ichki kurashlari jamiyatdagi adolatsizliklar va shaxsiy muammolarni yoritishga qaratilgan. Hikoya kichik hajmli va ixchamgina bo‘lishiga qaramasdan unda butun bir davrning og‘ir va zalvorli muhiti tasvirlangan. Asar bosh qahramon Sotiboldining ayoli og‘ir kasallikdan aziyat chekayotgani uni tuzatish uchun qo‘lidagi bor imkoniyatdan foydalansa-da umr yo‘ldoshini bu azoblardan qutqarishga ojiz qolgan va uning oilasi haqida hikoya qiluvchi ijod mahsuli sanaladi. E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, o‘sha davrda butun boshli jamiyat bor, bitta bo‘lsa ham doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo‘lida harom pullar o‘ynagan boylar va amaldorlar bor, qanday mehnat bo‘lsa qilishga tayyor bo‘lgan Sotiboldi bor, lekin bularning hech birida bemor uchun najot yo‘q. Qahhor aholi uchun zarur hisoblangan asosiy



xizmatlardan foydalanish cheklangan va qashshoqlik darajasi yuqori bo'lgan uzoq qishloqdagi og'ir hayotni, uning xunuk haqiqatlarini tasvirlashdan also chekinmaydi. Ayolning betoblighi ham hissiy, ham moliyaviy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi, sababi uning oilasi ayolni davoltishdan tashqari oilaning ehtiyojlari va turmush tarzi uchun ham daromad qilishi zarur. Bemorlik nafaqat shaxsiy balki ijtimoiy muammo sifatida ham ko'riladi. Sog'liqni saqlash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, bemorlarning dardlariga befarq qarashi bu iqtisodiy tizimdagi nuqsonlarni ham ochib beradi. Bemor insonlar ko'pincha e'tiborsiz qoladi va ularning muammolari jamoatchilik tomonidan ko'rilmaydi. Hikoyada Sotiboldining va uning xotining qarindoshlari haqida umuman so'z bormaydi. Bu qarindoshlarining yo'qligidan emas, yordam beruvchilar yo'qligini bildiradi. Bemorning qanday kasallikka chalingani haqida aytib o'tilmaydi. Jamoa ilmsizligining qurboni bo'lgan va bu kimsalardan biri tabib obrazidir. Tabiblikni kasb qilgan kishi bemorni qanday kasalga chalinganligini bilmay undan qon oladi va bu bemorning ahvolini yanada og'irlashtiradi. Oxiri ularning umidi 3 yosharli qizchaning sahar turib duo qilishiga qoladi. Buning barchasini Sotiboldi xotini o'lmasligi uchun qiladi, chunki mayibni chiqarish ham ancha pul talab qilar edi. Aynan mana shu pul qashshoqlik nochorlik sababli. O'sha davr kishilarning qanchalik imkoniyatlaridan mahrum bo'lganligini ifodalaydi. Yozuvchi bu asarni o'sha davrdagi iqtisodiy imkoniyatlari yetarli bo'lmagan kishilar kasallikka qarshi muolajani ham ola olmaydi. Shu sababdan ham ko'p insonlar oddiy kasalliklar tufayli vafot etib ketaveradi. Bu davrga kelib iqtisodiy imkoniyati yetarli bo'lmagan kishilar orasida pul sababli inson qadri atalmish tushunchalar o'z ahamiyatini batamom yo'qotadi. Jamiyat kishilarining maqsadi qorin to'yg'azish va kundalik turmush tashvishlari bilan kifoyalanib qoladi. Bunday sharoitda farzandlarini o'qitish ularga ilm berish haqida o'ylashni aytmasa ham bo'ladi. Asarda tabib, baxshi, qon oluvchilardan ham mudhish hodisa bor. Butun boshli jamiyatning birgina qizaloq qiladigan duolar bilan kifoyalanishi-asarning mazmunini ochib beruvchi eng katta omil. Butun boshli jamiyatda bir ayolning dardiga darmon bo'ladigan,



yordam beradigan kishi topilmaydi. Shifoxonalar, shifokorlar, boylar, badavlatlar ko'p bo'la turib ayolga yordam beradigan, aqalli bir kishi topilmaydi. Savat to'qib ayolini saqlab qolishga harakat qilayotgan, shifokorga ko'rsatish uchun imkoniyati yetmaydigan Sotiboldining ahvoli juda nochor, ilojsiz tasvirlanadi asarda Shuncha yordam berishga qodir qilingan kishilari bo'la turib bir bemor va yosh ayolni saqlab qola olmagan jamiyatda, tuzumda eng katta ayb. Bemor Sotiboldining xotini emas. Davr, muhit insonlarning ma'naviyati, insoniyligi-bemor. Millatparvar Hamza Hakimzoda Niyoziy fikri bilan aytganda, o'sha davr „tanasidan qon oldirgan bemor“ga aylanib qoladi. Bu paytda millatni jaholat botqog'idan qutqarishga qodir kishilar bo'la turib, bunga o'z hissalarini qo'shishni xohlamasliklari—eng og'ir dardga chalingan jamiyatlardagina uchraydigan holat. Sotiboldi ham qo'lidan kelguncha xotinini davolatishga urinadi. Ayb Sotiboldi yoki Abdug'aniboyda emas balki o'sha davrning kasallangan jamiyatida deb bilaman. Ya'ni o'sha paytda millatni jaholat botqog'idan qutqarib oluvchi insonlar bo'la turib bunga o'z hissalarini qo'shishni zohlshmagan. “Bemor” hikoyasi XX asr hayoti haqida gapiradi. Hikoyada qashshoqlik emas, balki loqaydlik falokatga olib kelinishi yoritib berilgan. Bu asar qahramonlari ming afsus bo'lsinki, hozirgi davrda ham topiladi. Ogoh bo'ling insonlar hayotiga befarq bo'lmang

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 6-sinf Adabiyot darsligi.-Toshkent, Ma'naviyat, 108-118 betlar.
2. Abdulla Qahhor hikoyalarida tasvir .To'plam Toshkent.
3. <https://uz.rn.wikipedia.org>
4. <https://talaba.su>
5. <https://www.ziyouz.com>
6. Tursunova, Sh.(2022). Abdulla Qahhor ijodida xalqona obrazlar tasnifi. Toshkent
7. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology